

Turayeva Gulnoraxon

Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi assistenti.

Annotatsiya. O'tgan asrlardan boshlab yadroviy urushlar, global moliyaviy inqiroz, epidemiya, suv toshqinlari yoki cho'llanish kabi muammolarga qarshi kurashib kelinayotgan bo'lsa, yangi asr arafasida ozon qatlamining yemirilib borayotgani ular safiga qo'shilib, u keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlar jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolamizda shu kabi muammolar va ularning sabab va yechimlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yadroviy urush, epidemiya, azon qatlami, global moliyaviy inqiroz.

Ma'lumki, ozon qatlamining asosiy qismi stratosferada, yer yuzidan o'rtacha 15-50 km. balandlikda joylashgan. Qutblarda esa, bu bor-yo'g'i 8 km. balandlikda boshlanadi.



Ahamiyatlisi, 20 kilometr dan 25 kilometr gacha oraliqdagi 5 km. da ozonning eng zich qismi bor. Tashqaridan ozon juda katta qatlamni tashkil etsada, aslida uning zichligi kam, agar u yer yuzidagi havo qadar zichlashtirilsa, atigi 3,5 mm. li yupqa plyonka hosil bo'lishi mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, oxirgi chorak asr davomida odamlarda teri saratoni, ko'z kasalliklari, immun tizimining susayishi kabi kasalliklar tobora ko'payib bormoqda. Qolaversa, o'simliklar dunyosi va hayvonot olamida ham sezilarli salbiy o'zgarishlar qayd etilmoqda. Ayniqsa, dehqonchilik tarmog'ida hosildorlik pasaya boshlagan. Kislorod manbayi bo'lgan daraxtlarning barglari kichrayib, fotosintez jarayoni qiyinlashmoqda. Bularning barchasiga sabab ozon qatlamida tuynuklar paydo bo'layotgani, borlari esa, tobora kattalashib borayotganligidir. Chunki, ozon Yerning qobiq qismlaridan biri bo'lib, u quyoshning zararli ultrabinafsha nurlaridan himoya qilib keladi.

Ozon tuynugi dastavval, 1985-yil Antarktida ustida, keyinroq Avstraliya tomon siljiyotgani, 1992-yil esa Arktika ustida kuzatilgan. Eng dahshatlisi, bundan 20 yillar muqaddam Shimoliy

qutb tepasida ozon qatlamidagi tuynuk hajmi rekord darajaga – 26 mln. kv. km.ga yetganligi aniqlandi. Buni bimalol Afrika qit'asi hududiga tenglashtirish mumkin. Bu o'z navbatida, sayyoramizning o'ziga xos himoya qalqoni hisoblangan ozon qatlami muhofazasiga har qachongidan ko'proq va jiddiyroq e'tibor qaratish hozirgi davrda g'oyat muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

To'g'ri, Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risida 1985-yil Vena konvensiyasi, 1987-yil Monreal protokoli qabul qilingan. Bu hujjatlarga ko'ra, ozon tuynuklarni keltirib chiqarayotgan sanoatdagi xlorli sovitchiklar va dezodorantlardan voz kechish zarurligi ta'kidlangan. Biroq, mazkur xalqaro hujjatlar ijrosiga ko'plab davlatlar yetarlicha e'tibor qaratishayotgani yo'q. O'ylashimcha, yuqorida keltirilgan xalqaro hujjatlarga qo'shimcha ravishda har bir mamlakat ekologiya, xususan ozon qatlami muhofazasiga doir alohida milliy dastur qabul qilishi lozim. Bu fuqarolarning ekologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.



Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston misolida quyidagi ishlar amalga oshirilishi taklifini bildiraman: Maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib Oliy ta'limning yuqori bosqichigacha ekologiya, jumladan ozon qatlamini muhofaza qilishga doir dars va mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish; OAV va media makonni ekologik muammolar hamda ularni bartaraf etishga oid sifatli kontentlar bilan boyitish; Respublika bo'ylab har oy kamida bir marta "Avtomobilsiz kun" aksiyalarini o'tkazish; "Yashil O'zbekiston-2040" konsepsiyasini ishlab chiqish;

Ekologik muammolar keltirib chiqarayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga javobgarlikni kuchaytirish; Ekologik toza va energiya tejamkor korxonalar va zavodlar faoliyatini rag'batlantirish; Hududlarda jahon, xususan Finlyandiya davlati tajribasidan kelib chiqib velosiped yo'laklarini bunyod etish va boshqalar.



Ozon qatlami zararli kimyoviy moddalar bosqichma-bosqich yo'q qilingani sababli o'nlab yillar ichida tiklanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qo'llab-quvvatlangan yangi baholashga ko'ra, sayyora uchun noyob xushxabar, Yerning ozon qatlami o'n yilliklar ichida butunlay tiklanadi, chunki ozonni yemiruvchi kimyoviy moddalar butun dunyo bo'ylab yo'q qilinadi. Ozon qatlami sayyorani zararli ultrabinafsha nurlaridan himoya qiladi. Ammo 1980-yillarning oxiridan boshlab olimlar bu qalqonda ozonni yemiruvchi moddalar, jumladan, muzlatgichlar, aerezollar va erituvchilarda uchraydigan xloroflorokarbonlar, deb ataladigan CFClar tufayli yuzaga kelgan teshik haqida ogohlantirgan edi. Xalqaro hamkorlik zararni – to'xtatishga yordam berdi. Ekspertlar guruhining baholashiga ko'ra, Monreal protokoli 1989-yilda kuchga kirganidan beri CFClardan foydalanish 99 foizga kamaydi, bu esa ozonga zarar yetkazuvchi kimyoviy moddalarni bosqichma-bosqich bekor qilishni boshladi.

Agar global siyosat o'z joyida qolsa, ozon qatlami 2040-yilga borib dunyoning ko'p qismi uchun 1980-yil darajasiga ko'tarilishi kutilmoqda. Qutbli hududlar uchun tiklanish muddati uzoqroq: Arktika bo'ylab 2045-yil va Antarktika bo'yicha 2066-yilgacha davom etishi mumkin. “Ozon harakati iqlim ta'sirida pretsedent bo'lib xizmat qiladi. Ozon bilan oziqlanadigan kimyoviy moddalarni bosqichma-bosqich yo'q qilishdagi muvaffaqiyatimiz qazib olinadigan yoqilg'idan voz kechish, issiqxona gazlarini kamaytirish va shu tariqa haroratning oshishini cheklash uchun shoshilinch ravishda nima qilish mumkinligini va nima qilish kerakligini ko'rsatadi”, - dedi Jahon meteorologiya tashkiloti bosh kotibi Petteri. Ozon qatlamini yemiruvchi gazlar ham kuchli issiqxona gazlaridir.



Sanoat inqilobidan keyin sayyora allaqachon 1,2 daraja atrofida isingan va olimlar iqlim inqirozining eng yomon oqibatlarini oldini olish uchun uni 1,5 daraja bilan cheklash kerakligi haqida ogohlantirgan. Olimlarning ta'kidlashicha, 1,5 darajadan ortiq isish kuchli qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari, suv toshqini va oziq-ovqat tanqisligi xavfini keskin oshiradi. Har to'rt yilda bir marta nashr etiladigan ushbu baholashda olimlar birinchi marta quyosh geoinjeneriyasining istiqbollari ham ko'rib chiqdi. Yer atmosferasidan quyosh nurini aks ettirish uchun stratosferaga aerozollarni purkash kabi chora-tadbirlar orqali global isishni kamaytirishga urinishlar bo'ldi. Xulosa sifatida, global muammo – ozon qatlamini himoya qilish barchamiz uchun oldimizdagi nihoyatda muhim bo'lgan vazifa. Ushbu vazifani ortga surish, befarqlik yoki uni shu bugun amalga oshirmaslik ona sayyoramizni halokatga mahkum etish bilan barobardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Karimov I., O'zbekistan XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, Toshkent, 1997.3. Shaxnazarov G., Kuda idyot chelovechestvo, Moskva, 1985.4. Otaboyev Sh., Nabiyev M., Inson va biosfera, Toshkent, 1995; Sanginov S, Filosofskiy analiz modelirovaniya globalnix protsessov, Toshkent,